


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI TURISTIK HOLAT TAHLILI

Xaitov Oxunjon Namoz o‘g‘li
tadqiqotchi, Sh.Rashidov nomidagi SamDU

Respublikamizda turizm sohasini barqaror rivojlanishi, jumladan, tarixiy-madaniy merosga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish, xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan infratuzilma yaratilishi, xalqaro aloqalarni mustahkamlanishi mamlakatimizni dunyodagi eng ko‘p tashrif bo‘ladigan davlatlardan biriga aylantirdi.

2022-yilda MDH davlatlaridan respublikamizga tashrif buyurgan fuqarolar soni 2021-yilga nisbatan 2,9 barobarga, boshqa mamlakatlardan kelganlar soni esa 58,1 % ga oshdi (1-rasm).




1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida MDH davlatlaridan tashrif buyurgan fuqarolar soni, ming kishi¹

2022-yilda O‘zbekiston Respublikasiga MDH davlatlaridan 4 968,1 ming kishi tashrif buyurib, bu jami kelganlarning 94,9 % ini tashkil etdi, boshqa davlatlardan – 264,7 ming kishi (5,1 %) tashrif buyurgan.


2022-yilning yanvar-dekabr oylarida O‘zbekistonga kelgan chet el fuqarolari safar maqsadini o‘qish uchun deb belgilaganlar soni 8,8 ming kishiga (jami kelganlarning 0,2 % i) teng, tijorat maqsadida kelganlar – 20,4 ming kishi (0,4 %), davolanish uchun – 70,0 ming kishi (1,3 %), xizmat safari uchun – 83,8 ming kishi (1,6 %), bo‘sh vaqt va dam olish uchun – 392,2 ming kishi (7,5 % ga to‘g‘ri kelgan).

¹ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida tuzilgan.



2-rasm. O‘zbekiston Respublikasiga xorijdan kelgan turistlarning ulushi², %

Eng ko‘p sayohatlarning maqsadlariga esa qarindoshlarni yo‘qlash deb belgilanganlari – 4 657,6 ming kishi (89,0 % ga teng bo‘lgan). Tegishli davrning o‘tgan 2021-yilga nisbatan o‘qish maqsadidagi safarlar 37,5 % ga, xizmat safarlari 38,1 % ga, tijorat maqsadidagi safarlar 48,9 % ga oshgan. Davolanish uchun amalga oshirilgan safarlar 2,2 baravarga, bo‘sh vaqtini o‘tkazish va dam olish uchun 2,5 baravarga va qarindoshlarni yo‘qlash uchun 2,9 barobarga oshgan.




3-rasm. O‘zbekiston Respublikasiga 2022-yilda turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolarining safar maqsadlari bo‘yicha taqsimlanishi³, ming kishi

Quyida keltirilgan grafiklardan xulosa qilish mumkinki, 2022-yilda xorijiy davlatlardan (MDH davlatlaridan tashqari) chet el fuqarolari O‘zbekiston Respublikasiga asosan bo‘sh vaqtini o‘tkazish va dam olish uchun – 140,5 ming kishi (xorijiy davlatlardan (MDH davlatlaridan tashqari) tashrif buyurganlarning umumiy sonidan 53,08 % i), qarindoshlarini yo‘qlash uchun – 73,4 ming kishi (27,73 %) hamda xizmat safari maqsadida – 37,6 ming kishi (14,2 %) tashrif buyurgan. O‘qish

² O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

³ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

uchun – 7,1 ming kishi (2,68 %), tijorat maqsadida – 6,0 ming kishi (2,27 %) va davolanish uchun – 0,1 ming kishi (0,04 %) kelgan (2.4-rasm).



4-rasm. O‘zbekiston Respublikasiga turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolarining jinsi bo‘yicha taqsimlanishi⁴, ming kishi

O‘zbekiston Respublikasiga 2022-yilda tashrif buyurgan kelgan erkak turistlar soni 2 585,8 ming kishidan iborat bo‘lib, bu kelgan barcha xorijiy fuqarolar umumiy sonining 49,4 % ini tashkil etgan. 2021-yilga nisbatan ularning soni 2,7 barobarga oshgan. 2022-yil davomida kelgan erkaklarning eng katta qismi to‘rtinchi chorakka to‘g‘ri kelgan – 837,5 ming kishi, bu ularning umumiy sonining 32,4 %ini tashkil etgan. 2022-yilda mamlakatimizga tashrif buyurgan ayollarning umumiy soni 2647,0 ming kishidan iborat bo‘lgan va kelgan barcha turistlar umumiy sonining 50,6 %ini tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich 2021-yilga nisbatan ularning soni 2,9-martaga oshgan. 2022-yil davomida kelgan ayollarning eng katta qismi uchinchi chorakka to‘g‘ri kelgan – 884,8 ming kishi, bu ularning umumiy sonining 33,4 %ini tashkil etgan (4-rasm).

1-jadvalda respublikamiz hududlarida joylashtirish vositalari soni keltirilgan bo‘lib, hududlarda turizmning rivojlanish darajasiga qarab mehmonxonalar soni 2017-yilda hududlar bo‘yicha eng ko‘p Toshkent shahri (19,2 %) va Buxoro (15,3 %), Samarqand (13,5 %) viloyatlari, 2021-yilga kelib bu ko‘rsatkich Toshkent shahri (28,3 %) va Buxoro (16,6 %), Samarqand (10,7 %), Xorazm (6,9 %) viloyatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi hududlarida joylashtirish vositalari soni (birlikda)⁵

Hududlar	Yillar					2017-2021 y.y.da o‘shish, %
	2017	2018	2019	2020	2021	

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Turizm va spor vazirligi ma‘lumotlari.

O‘zbekiston Respublikasi	816	916	1051	1156	1085	133,0
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	47	52	28	60	30	63,8
Andijon viloyati	25	23	22	21	22	88,0
Buxoro viloyati	125	140	173	193	180	144,0
Jizzax viloyati	34	45	40	43	33	97,1
Qashqadaryo viloyati	43	43	62	45	46	107,0
Navoiy viloyati	30	29	35	34	37	123,3
Namangan viloyati	26	26	27	36	29	111,5
Samarqand viloyati	110	116	146	149	116	105,5
Sirdaryo viloyati	38	38	26	29	50	131,6
Surxondaryo viloyati	12	17	15	14	14	116,7
Toshkent viloyati	67	78	96	109	97	144,8
Farg‘ona viloyati	49	55	92	98	49	100,0
Xorazm viloyati	53	64	73	82	75	141,5
Toshkent shahri	157	190	216	243	307	195,5

Respublikamizda asosiy turistik resurslar soni 2021-yilda 781 tani tashkil etib, 2017-yilga nisbatan 23,5 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko‘rsatkich 2019-yilga kelib mamlakatimizda madaniyat istirohat bog‘lari va axborot-kutubxona va resurs markazlarining kamayib ketganligi oqibatida salmoqli pasayish tendensiyasiga ega (2.4-jadval). Buning asosiy sababi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi PQ-4354-sonli “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, umumta’lim maktablari va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari qoshida faoliyat ko‘rsatayotgan, shuningdek barcha axborot-resurs markazlarini tugatilib, aholiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish, axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini rivojlantirish maqsadida tuman (shahar) axborot-kutubxona markazlari qaytatdan tashkil etilgan. Shu nuqtayi nazardan, asosiy turistik resurslarini sonini oshishida ayti texnologiyalari asosida modernizatsilashni taqozo qilmoqda.

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasida asosiy turistik resurslar soni (birlikda)⁶

№	Ko‘rsatkichlar	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2017-2021-y.y.da o‘zgarish, %
1	Asosiy turistik resurslar, birlik	3329	3312	418	818	781	23,5
	Shu jumladan:						
1.1.	muzeylar	121	97	100	105	127	104,9

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

1.2.	teatrlar	50	50	50	49	50	100,0
1.3.	konsert tashkilotlari	67	66	72	72	69	103,0
1.4.	sirkalar	1	1	1	1	1	100,0
1.5.	madaniyat istirohat bog'lari	189	193	192	188	129	68,2
1.6.	hayvonat bog'lari	3	3	3	3	3	100,0
1.7.	axborot-kutubxona va resurs markazlari	2898	2902	398	400	402	13,9

3-jadvalda O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha mehmonxonalar va joylashtirish vositalarida nomer fondining yuklama koeffitsiyenti keltirilgan bo'lib, 2021-yilda bu ko'rsatkich yuqori bo'lgan hududlar Toshkent shahri (21,7 %) va Sirdaryo (27,3 %), Farg'ona (23,1 %), Andijon (22,8 %) viloyatlari hisoblanadi. Respublika bo'yicha mehmonxonalar va joylashtirish vositalarida nomer fondining yuklama koeffitsiyenti 16,3 %ni tashkil etgan.

Hozirgi vaqtda turizm jahon iqtisodiyotida tez sur'atlarda o'sayotgan va xizmatlar eksporti sohasiga aylanib bormoqda. Jahon turizmi buyicha Manila deklaratsiyasida "Turizm faoliyat sifatida mamlakatlarning ijtimoiy, madaniy, ta'lim va iqtisodiy sohalariga va ularning xalqaro aloqalariga to'g'ridan-to'g'ri ta'siri ko'rsatgan holda xalqlar hayotida muhim ahamiyat kasb etadi" deya e'tirof etilgan. Ushbu holat turizmning milliy davlatlarning ijtimoiy hayotida alohida o'ringa egaligi va chuqur kirib borayotganligi hamda istiqbolli soha sifatida yuqori o'ringa ega bo'layotganligini turizm va rekreatsiyaga xos uning turli xil funksiyalarini tadqiq qilish asosida tushunish mumkin. Turizm sohasi rivojlanishining iqtisodiy funksiyasi turistlarning turistik xizmatlarga bo'lgan talab va ehtiyojlari orqali shakllanadi. Doimiy yashash joyidan uzoqda bo'lgan turistlarning ehtiyojlari uch guruhga, ya'ni asosiy, o'ziga xos va qo'shimcha ehtiyojlarga ajratiladi.

3-jadval

O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha mehmonxonalar va joylash-tirish vositalarida nomer fondining yuklama koeffitsiyenti (yil boshiga, %)⁷

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2017	2018	2019	2020	2021
Respublika bo'yicha, jami	28,8	31,5	28,4	9,6	16,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	50,3	16,1	19,5	9,5	15,8
Andijon viloyati	24,0	30,5	29,0	12,8	22,8
Buxoro viloyati	20,2	25,4	22,0	3,2	9,8
Jizzax viloyati	25,7	21,2	15,9	15,3	12,4
Qashqadaryo viloyati	21,4	24,4	20,2	14,1	12,3
Navoiy viloyati	28,0	35,4	21,3	10,2	15,1
Namangan viloyati	21,1	18,5	14,8	11,2	14,6
Samarqand viloyati	24,8	29,4	25,7	6,8	11,5
Surxondaryo viloyati	22,6	32,4	20,4	12,3	17,3
Sirdaryo viloyati	22,2	23,1	36,3	36,8	27,3
Toshkent viloyati	22,4	25,8	24,5	8,6	12,4

⁷ O'zbekiston Respublikasi Turizm va spor vazirligi ma'lumotlari.

Farg'ona viloyati	17,1	25,9	18,7	4,1	23,1
Xorazm viloyati	19,2	21,2	21,0	4,3	9,6
Toshkent shahri	36,1	41,6	40,8	13,6	21,7

Mamlakatimizda turizmni samarali rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan choralarning muhim ijobiy natijalari quyidagilarda namoyon bo'ladi: turizm sohasini rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqish, Markaziy Osiyo davlatlari va uzoq xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarni mustahkamlash, turizm infratuzilmasini rivojlantirish, turizm sohasida xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash kabi yo'nalishlar.

Hozirgi vaqtda turizm ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning real katalizatori hisoblanadi. Biroq, mamlakatimizda mavjud turistik salohiyatni oshirishga yetarlicha baho bermaslik mazkur sohada amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini pasayishiga olib kelmoqda. Sayyohlik agentliklarini, shuningdek kelajakda xizmatlarni diversifikatsiyalash va rag'batlantirishga ta'sir ko'rsatadigan texnik innovatsiyalardan to'liq foyda olish, xarajatlar samaradorligini oshirish, mehnatni va iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirishga yordam beradigan muammolarni hal qilishning zamonaviy tahliliy usullari va yondashuvlaridan yetarli darajada foydalanish lozim.

Bugungi kunda iqtisodiyotning yuqori rentabelli turistik salohiyatidan respublikada yetarlicha foydalanish maqsadida sohani rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish uchun ulkan imkoniyatlarga ega. Turistik xizmatlar bozorida yangi mahsulotning paydo bo'lishi boshqa, yanada ilg'or loyihalarni ishlab chiqish, ularni moliyalashtirish imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi. Turizmning innovatsiyalar katta moddiy, moliyaviy xarajatlarni talab qiladi. Shuning uchun bunda davlat moliyaviy ko'magi muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.
2. O'zbekiston Respublikasi Turizm va spor vazirligi ma'lumotlari.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.